**Аннотация:** В статье анализируется благосостояние населения и особенности снижения бедности путем его обеспечения. Систематизированы взгляды и научные выводы зарубежных учёных. На основе исследований разработаны научные предложения и выводы по обеспечению благосостояния населения за счет снижения уровня бедности.

**Ключевые слова:** бедность, благосостояние, социальная защита, социальная политика, образование и здравоохранение.

## KIRISH

Kambag'allik kategoriyasi aholining minimal iste'mol talablarini mustaqil bajara olmasligi bilan yuzaga chiqadi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda minimal iste'mol talablari turli miqyosda o'rnatilgan bo'lib, ularning tarkibiy bo'g'inlari o'zaro farqlanishini ta'kidlash lozim. Umuman olganda, minimal iste'mol xarajatlarini aniqlash va uni baholash mamlakatlarda hukumatlar tomonidan o'rnatiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tavsiyaviy xarakterdagi ko'rsatkichlarni ishlab chiqishgan. Bu borada, kambag'allikni aniqlash o'zaro uyg'un jarayon sifatida amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, kambag'allikni aniqlashga nisbatan yondashuvni minimal iste'mol me'yori metodlaridan foydalangan tarzda amalga oshirilishi turmush farovonligini ta'minlashning minimal chizig'ini aks ettibi beradi. Shu boisdan, kambag'allikni aniqlashda moddiy va nomoddiy omillarga ajratib aniqlanishida turmush farovonligiga nisbatan yondashuvning ikki jihatni vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan, aholi turmush farovonligini ta'minlashda kambag'allikni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning oldingi qismlarida ta'kidlab o'tganimizdek, inson kapitali yoki taraqqiyoti indeksi turmush farovonligini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri ekanligini ta'kidlab o'tdik. Ushbu kategoriyaning vujudga kelishida iqtisodiy omillardan tashqari noiqtisodiy omillarning ham shakllanganligi kambag'allikni baholashga nisbatan yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Masalan, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush farovonligini ta'minlash ko'rsatkichlari ichida ish vaqtining haftalik yuklamasi 5 kundan 4 kunga qisqa-rayotganligi ham inobatga olinishi boshlanganligi turmush farovonligini baholash metodologiyasi dogma xususiyatga ega emasligini anglatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИ

Oksford universiteti professori Meri Dali va Qirol Meri universiteti professori Paul Koupland o'zining tadqiqotlarida Yevroap mamlakatlarining kambag'allikka qarshi ijtimoiy siyosatini tahlil etishga harakat qilishadi [1]. Ularning fikricha, mamlakatda o'rtcha daromadning 60 foizidan kam daromad topuvchilarni kambag'allik xavfi



ostida ekanligini qayd etish lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ijtimoiy kam ta'minlanganlik komponentlari sifatida ijara haqi (kommunal xizmatlar) uchun to'lash, uyni isita olish, favqulodda xarajatlarni qoplay olish, ikki kundan birida go'sht, baliq yoki boshqa oqsilli mahsulotlarni iste'mol qilish, yilda bir marta uyidan uzoqda dam olish imkoniyati, avtomobilga ega bo'lish, kir yuvish mashinasiga ega bo'lish, rangli televizorga ega bo'lish va telefonga ega bo'lishning to'qqiz turidan to'rttasiga ega bo'lmaslik hayot farovonligini past ekanligini ko'rsatadi, degan ilmiy xulosani beradi.

Qayd etish lozimki, aholining nominal o'Ichov mezonlarida ham kambag'allikni qisqartirish turmush farovonligini ta'minlashda asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Bunda yuqori va kam daromadli aholi qatlami o'rtasidagi farjni qisqartirishga e'tiborni qaratadi. Bu esa, davlat soliq undirishda ko'proq daromadli aholiga e'tibor qaratishi lozim, degan fenomen shakllanadi. Biroq, ushbu fenomenni amalga oshirishda soliq siyosatini takomillashtirish muammosi vujudga keladi. Shu nuqtayi nazardan, daromadlar tengsizligini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirish dolzarblik kasb etadi.

Birlashgan millatlar tashkilotining 2015–2030-yillarda barqaror rivojlanish 17 maqsadining bir nechta ko'rsatkichlari aynan aholi turmush farovonligini ta'minlash bilan bog'liq jihatlarni o'zida aks ettirib beradi. Jumladan, birinchi maqsad kambag'allikni qisqartirish bo'lsa, yana bir nechta ochlikni tugatish, ta'lim, sog'liqni saqlash va toza ichimlik suvi bilan ta'minlash kabi omillarni qamrab olishi nazarda tutilgan. Umuman olganda, aholi turmush farovonligini ta'minlashda yuqorida ta'kidlab o'tgan ko'rsatkichlar alohida o'rinni tutsada, biz tadqiqotimizning ushbu qismida kambag'allikni qisqartirish nuqtayi nazardan yondashuvni amalga oshiramiz.

Bizningcha, aholi farovonligini ta'minlashda kambag'allikni qisqartirish borasidagi yondashuvimizni ishlab chiqishda aholi daromadlari va uning tengsizligini kamaytirish, fiskal siyosatda aholi daromadlarini barqarorlashtirish yo'nalishlari kabi jihatlarga e'tiborni qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kembridj universiteti professori X.Dalton 1920-yilda e'l-on qilgan maqolasida daromadlar tengsizligini baholashga nisbatan ilmiy yondashuvlarni bayon etib beradi [2]. Uning fikricha, iqtisodiy farovonlik nuqtayi nazardan tengsizlik aniqlanganda daromadlarga asoslanish zarurligini ta'kidlab o'tadi. Bu esa, daromad va iqtisodiy farovonlik o'rtasida uzviy bog'liqlik yuqoriligini ko'rsatishini asoslashga harakat kiladi. Daromad va iqtisodiy farovonlik o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik mavjudiligi asoslab beradi. Uning tadqiqotlarida daromad asosiy mezon sifatida olinadi.

O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab iqtisodiy tengsizlikka nisbatan ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilishi boshlandi. Jumladan, Kembridj universiteti yana bir professori A.Atkinson 1970-yilda daromadlarga asoslangan holda ijtimoiy farovonlikni baholashga harakat kiladi [3]. U jismniy shaxslar daromadining taqsimotini soliq to'laguncha va to'lagandan so'nggi holatida qanday bo'lishiga e'tibor qaratishni taklif etadi. Daromadlarning taqsimoti teng bo'lgan holda ijtimoiy farovonlik ta'minlangan deb hisoblaydi. Daromadlar tengsizligini ta'minlashda soliq siyosati orqali ta'sir ko'rsatish va uni qayta taqsimlash funksiyasidan foydalangan holda amalga oshirishni tavsiya etadi.

Illinois universiteti professori A.Ayner va A.Xeyns 1967-yilda daromadlar tengsizligi borasidagi tadqiqotlarni amalga oshirishadi [4]. Ularning fikricha, daromadlarni soliqlar yordamida progressiv stavkani qo'llagan holda barqaror taqsimotiga erishish mumkinligini ijobiy baholashadi. Biroq, ushbu progressiv stavka xodimlarning mehnatga ishtiyoqini kamaytirishiga olib kelsa yalpi daromad ko'lamenti pasayishi vujudga kelishini ko'rsatib berishadi.

Fikrimizcha, aholi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlarda dastlab daromadlar tengsizligi borasidagi ilmiy yondashuvlar shakllangan. Ushbu tendensiyalarning rivojlanishi ijtimoiy davlat kategoriyasini vujudga kelishiga o'zining ta'sirini ko'rsatgan. Daromadlarning teng taqsimlanishiga erishish ijtimoiy-iqtisodiy turmush farvonligini ta'minlashga xizmat qiladi, degan dastlabki ilmiy xulosalar asoslangan.

Bizningcha, XXI asrga kelib axborot texnologiyalarining rivojlanishi, kambag'allik kategoriyasiga nisbatan yondashuvlarning rivojlanishi natijasida daromadlar tengsizligi to'liq ko'rsatkich maqomiga ega bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatib bermoqda. Shu boisdan, kambag'allik kategoriyasini qisqartirishda daromadlar tengsizligiga olib keluvchi omillar bilan birga, davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini takomillashtirish zarurati vujudga kelmoqda.

Shu jihatdan kambag'allikni aniqlashga nisbatan ham yondashuvlar rivojlana boshladi. Jumladan, professor A.Sen (Nobel mukofoti sovrindori) 1976-yilda kambag'allikni aniqlashga qaratilgan mezonlarni taklif eta boshlaydi [5]. Xususan, daromadlar taqsimotida o'rtachadan past miqdorga ega bo'lgan aholi qatlamini kambag'allik chegarasida ekanligini isbotlab ko'rsatib beradi. Uning fikricha, yetarli darajada daromadlarga va iste'mol xarajatlari ega bo'lmaslik jamiyatda kambag'allar qatlamini shakkantirib berishi ta'kidlab o'tiladi.

Ta'kidlash lozimki, kambag'allik darajasida istiqomat qiladigan oilalarни daromadlar bilan ta'minlash bir jihatdan muhim bo'lsa, boshqa jihatdan ularning farzandlarini kelajakdagи ehtimoliy kambag'allikka tushib qolishidan himoya qilish muhim hisoblanadi. Yoshlarning maktabda ta'lim olishi va ularning natijalari ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa kambag'allik riskining vujudga kelishi nat-



jasida o'rta va uzoq muddatli davrda kambag'allikni baholashni taqozo etadi. O'z navbatida, aholi turmush farovonligini ta'minlashning o'rta (yoki qisqa) va uzoq muddatli davrlarda bo'lish zaruratini aks ettirib beradi.

Shundan kelib chiqib, oilaning daromadlarini tartibga solishda farzandlarning kambag'allikka riskini ino-batga olish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oila daromadlarini oshirishda davlat budgeti mablag'larining va o'z daromadlariga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarimiz asosida oilaning qisqa mud-datli va uzoq muddatli daromadlari tarkibini tizimlashtirish va shu asosda kambag'allik riskini aniqlash mumkin bo'ladi, deb hisoblaymiz:

Qisqa muddatli daromadlari tarkibi muddatli mehnat bilan shug'ullanish (qishloq xo'jaligi ishlari), davlat budgeti tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy himoya dasturlari bo'yicha moddiy yordam olish kabilarni kiritish mumkin;

Uzoq muddatli daromadlar sirasiga o'rta yoki yuqori malaka talab etuvchi mehnatga haq to'lash asosidagi daromad, moliyaviy faoliyatdan daromadni shakllantirish kabi holatlarni keltirish mumkin.

Uzoq muddatli daromadlarga ega bo'lgan oilar va ularning farzandlari turmush farovonligi mezonlarida istiqomat qilishlarida murakkabliklar kam uchraydi. Buni xalqaro tajribadan ham ko'rish mumkin. Biroq, qisqa muddatli daromadga ega bo'lgan oilalar va ularning farzandlari kambag'allik riskiga uchrashi ehtimoli bir muncha yuqori hisoblanadi.

Shu boisdan, aholi daromadlari orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini ta'minlashda birinchidan daromadlar taqsimoti, ikkinchidan muddati nuqtayi nazaridan yondashish dolzarblik kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bu esa, daromadlar barqrarligiga erishish aholi turmush farovonligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanligini o'zida aks ettirib beradi.

Umuman olganda, jahon tajribasida nisbiy va mutloq kambag'allik darajasi baholanadi. Mutloq kambag'allik belgilangan turmush farovonligini uchun minimal iste'mol xarajatlarini ta'minlay omaslik darajasi bilan aniqlanadi. Bunda, oldindan belgilangan kunlik daromad miqdoridan kam daromadga ega bo'lgan shaxs yoki oilalarning kambag'allik chegarasida ekanligini baholashga e'tibor qaratiladi.

Jahon banki 2017-yildagi sotib olish indeksi (purchsing power parities) asosida 2022-yil sentyabr oyidan boshlab bir kishiga kunlik daromad miqdorini kam daromadli mamlakatlar uchun 2,15 AQSH dollari sifatida bo'lishini tavsiya etdi. Bunda o'rtachadan kam daromadli mamlakatlar uchun 3,65 AQSH dollari, o'rtachadan yuqori daromadli mamlakatlar uchun esa 6,85 AQSH dollari tarzida taklif etildi. Mamlakatlarning o'rtacha daromad miqdoriga asoslangan holda mutloq kambag'allik miqyosini baholash mumkin bo'ladi. Masalan, O'zbekiston o'rtacha kam darodmali mamlakatlar sirasiga kirishini inobatga oladigan bo'lsak, bir kishi kunlik daromadlari miqdori 3,65 AQSH dollaridan kam bo'imasligi lozim bo'ladi. Ushbu qiymat o'rtacha kunlik miqdori 45000 so'mga teng bo'lishini ta'kidlash lozim.

Nisbiy kambag'allik darajasi mamlakatdagi YAIM kishi boshiga o'rtacha miqdorining 60 foizidan kam bo'imasligi kambag'allik nisbiy shaklda baholashga imkon beradi [6]. Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra [7], 2023-yil uchun O'zbekiston YAIM joriy narxlardagi hajmi kishi boshiga o'rtacha 2510 AQSH dollariga teng bo'limoqda. Ushbu metod asosida baholaydigan bo'lsak, o'rtacha 1506 AQSH dollari miqdoridan kam daromadga ega bo'lgan shaxs kambag'allikning nisbiy ko'rsatkichidan kam daromadga ega bo'limoqda, deb xulosa qilish mumkin.

Yuqorida keltirilgan raqamlar asosida O'zbekistondagi nisbiy va mutloq kambag'allikni solishtirsak quyidagi holat vujudga kelishi mumkin: Mutloq kambag'allik 3,65x365(kun) bo'lsa, bir yil 1332 AQSH dollariga teng bo'lsa, nisbiy kambag'allik 1506 AQSH dollariga teng bo'lishini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, mamlakatimiz holatida bazis va joriy naxlarda hisoblanishi nuqtayi nazaridan nisbiy va mutloq kambag'allik moliya yili kesimida sezilarli farqlaishga ega bo'imasligini ko'rish mumkin.

Ta'kidlab o'tganimizdek, qisqa va uzoq muddatli kambag'allik shakllarining nisbiy va mutloq daromadlarga asosan baholanishi aholi turmush farovonligini ta'minlashda kambag'allikni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etishini aks ettirib beradi. Shu boisdan, mamlakatda daromadlar barqrarligini ta'minlash ham fiskal, ham taqsimot jihatidan tartibga solinishi lozim bo'ladi.

Bu borada, o'zbekistonlik olim va tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasidagi ilmiy xulosa, yondashuvlarni ko'rib o'tsak. Prof. N.Jumayev va prof. D.Raxmonov o'zlarining maqolasida aholi turmush farovonligini ta'minlashda kambag'allik omilining savodsizlik asoslarini ko'rsatishga intilishadi. Shuningdek, ijtimoiy sohaning nobarqarorlashuvi aholi turmush farovonligini pasayishiga ta'sir etishini ta'kidlab, quyidagi holatlar unga sabab bo'lishini ko'rsatishadi [8]:

- sog'liqni saqlash tizimida davlat xarajatlarining, ayniqsa, birlamchi tibbiy xizmatlar taqdim etishda yetarli emasligi;
- maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish qamrovi pastligi;



- maktab ta'limida o'quv muassasalaridan "rezina" kabi foydalanish bazaviy ta'limning natijadorligini tushirib yuborishi;
- oliy ta'limning qamrovi 10 foizga yetmasligi katta ulushga ega bo'lgan yoshlarning inson kapitali daramasini pasaytirishi;
- ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan mablag'lar YAIMga nisbatan 0,25 foiz atrofida bo'lishi.

Prof. R.Hasanov o'zining maqolasida kambag'allik minimal iste'mol xarajatlari bilan ta'minlanganlik darajasi va uning daromadlar bilan qoplash mezonlariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, aholi turmush farovonligini ta'minlashda quyidagi omillar muhim ekanligini ta'kidlab o'tadi:

- 1) mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- 2) daromad topish imkoniyatlarining kengligi;
- 3) iqtisodiyot sohalarining erkin rivojlanganlik darajasi;
- 4) tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinligi;
- 5) pul topish uchun huquqiy asoslarining yaratilganligi;
- 6) pulning qadrsizlanish darajasi;
- 7) mulkka egalik qilish va undan daromad topishda foydalanish kabi jihatlar shular jumlasiga kiradi [9].

Prof. M.Tursunkodjayev va prof. X.Abulkasimov aholi farovonligini ta'minlashda kambag'allik muammosini tadqiq etishadi. Ular "kambag'allik tuzog'i" kategoriyasiga urg'u berishadi. Ularning fikricha: "Kambag'allik tuzog'i" tasnifining o'ziga xosligi shundaki, unda ekologik xavf-xatarning ortib borishi, siyosiy beqarorlik va kambag'al mamlakatlarda istiqomat qilish, qishloq aholisining yetarlicha daromadga ega bo'lmasisligi va ishsizlik, o'z vaqtida kasallikdan davolanmaslik, sifatsiz ta'lim natijasida yetarlicha bilimga ega bo'lmaslik hamda kasbhunar egallamaslikning kambag'allik darajasi ortishidagi ulushi ortmoqda" [10] deb ta'kidlab o'tishadi.

Fikrimizcha, aholi turmush farovonligini ta'minlashda kambag'allikni qisqartirish masalasi kun tartibidagi doimiy vazifa bo'lib qolmoqda. O'zbekistonlik olimlar aholi turmush farovonligini ta'minlashda turli nuqtayi nazardan yondashishgan. Ayrimlari ijtimoiy sohaning barqarorligi muhim ahamiyatga ega deb hisoblashsa, boshqa guruh olimlar daromadlar taqsimoti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tishadi. Turmush farovonligiga nisbatan ko'rsatkichlarni shakllantirilishida sifat va miqdor jihatidan yondashuvlarni kuzatish mumkin. Masalan, daromadlarning barqaror taqsimoti miqdoriy baholashga asos bo'lsa, savodxonlik va sog'liq darajasining ijobjiy tendensiyaga ega bo'lishi sifat jihatidan asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda nazariy qarashlarni tizimlashtiriladi. Ular empirik tadqiqotlarning nazariy xulosalarini qiyosiy baholashga imkon beruvchi metodlar asosida shakllantiriladi. Tadqiqotlar asosida nazariy ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy sohaning nobarqaror natijadorligi ortidan ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi jahon tajribasidan ma'lum tendensiya hisoblanadi. Ushbu tendensiya esa, ijtimoiy soha (ta'lim va tibbiyot) xizmatlarning sifat jihatidan nobarqarorlashuvi miqdoriy o'zgarishlarga olib kelishini qayd etish lozim. Miqdoriy baholashda ijtimoiy himoya dasturlarining davlat budgetidan mablag'larga bo'lgan zaruratni keltirib chiqaradi. Natijada, kambag'allikning turli shakllari rivojlanishi va aholi turmush farovonligini ta'minlashning murakkablashishi vujudga keladi.

Yuqorida keltirilgan o'zbekistonlik olimlarning fikr va ilmiy xulosalarini umumlashtirib, turmush farovonligini sifat va miqdor jihatidan tizimlashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida kambag'allik va turmush farovonligini o'zaro bog'likligini baholashda quyidagi 1-jadvaldag'i holatni keltirish mumkin.

Unda turmush farovonligi oqibati sifatida daromadlar barqarorligi olingen bo'lsada, sabab sifatida ijtimoiy siyosatning yo'nalishlari qayd etilgan. Daromadlar taqsimotida nuqtayi nazardan uzoq va qisqa muddatli davrlarda bo'lishi kambag'allikning turli shakllarini keltirib chiqarishi mumkin ekan. Shu boisdan, mutloq kambag'allikni kamaytirish daromadlarni fiskal vositalar orqali taqsimoti orqali bartaraf etilsa, nisbiy kambag'allik insonlarni mehnat qilish imkoniyatlarini oshirishdan iborat bo'ladi (1.1-jadvalga qarang).



**1-jadval: Aholi turmush farovonligi va kambag'allik miqyosining o'zaro nisbati**

Aholi turmush farovonligi	Kambag'allik darajası	
	Nisbiy kambag'allik	Mutloq kambag'allik
Uzoq muddatli daromad	Ijtimoiy soha (ta'lim va tibbiyat)ning barqaror ishlayotganligi va daromadlar tengsizligining sezilarli ekanligini aks ettiradi	Ijtimoiy soha barqaror natijadorligi va daromadlar tengsizligi kichikligini anglatadi
Qisqa muddatli daromad	Ijtimoiy sohaning nobarqaror natijadorligi, ijtimoiy himoya tizimidagi taranglikning mavjudligi	Ijtimoiy sohaning nobarqaror natijadorligi, ijtimoiy himoya tizimidagi taranglikning mavjudligi
Ta'minlash vositasi	Ijtimoiy soha va kasbga o'qitishni rivojlantirish	Jismoniy shaxslar uchun soliq siyosatini takomillashtirish

Manba: Tadqiqotchi tomonidan izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan.

Bizningcha, uzoq muddatli daromadlarni tartibga solishni Jini koeffitsiyentini baholash orqali amalga oshirish mumkin, deb hisoblaymiz. Bu esa fiskal instrumentlar orqali optimallashtirilish mumkin, deb o'yaymiz. Shu nuqtayi nazardan, nisbiy kambag'allik kategoriyasini kamaytirishga erishish mumkin bo'ladi. Mutloq kambag'allik kategoriyasiga qarshi kurashda esa, davlatning ijtimoiy himoya dasturi amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

Prof. K.Axmedjanov va tadqiqotchi F.Zayniyev o'zining tadqiqotlarida aholi daromadlari tengsizligini tartibga solishda fiskal instrumentlardan samarali foydalansh yuzasidan ilmiy xulosalarni asoslashga harakat kiladi. Ularning fikricha, jismoniy shaxslarning joriy daromad solig'i kam daromadga ega bo'lgan aholi qatlaming jamg'arish imkoniyatini oshirgan bo'lsada va tengsizlikka sezilarli ta'sir etganligini qayd etib o'tishadi. Jumladan, ular bu borada quyidagi ilmiy xulosani keltirishadi: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha daromad oluvchi aholining iste'mol xarajatlarini yaxshilash, ular zimmasidagi soliq yukini pasaytirish va pirovard natijada daromadlarni soliqqa tortishda ijtimoiy adolatlilik tamoyiliga rioya qilish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy qilish maqsadga muvofiq [11].

Tadqiqotchi G'.Ro'ziyev o'zining maqolasida aholining minimal daromadiga soliq solmaslik borasidagi xulosalarni keltirib o'tadi. Uning fikricha, Soliq kodeksiga jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda "soliqqa tortilmaydigan minimum" (yoki "soliq solinmaydigan minimum") tushunchasini kiritish, hech bo'limganda uning miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga teng bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi, degan ilmiy xulosani asoslashga xarakat kiladi [12].

Fikrimizcha, aholi daromadlaring tengsizligini ortib borishi nisbiy kambag'allik darajasini vujudga kelishiga zamin hozirlashi mumkin ekan. Bu esa, turmush farovonligiga salbiy ta'sir etadi. Shu boisdan, kam daromadli aholi qatlaming daromadlari barqarorligi va sotib olish qobiliyatini oshirib borishda fiskal siyosat vositalaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kam daromadli aholi qatlami turmush farovonligini ta'minlashda daromadlarni soliqqa tortish tizimini tahlil etish lozim bo'ladi. Bunda aholi daromadlaring iste'mol, jamg'arish va investitsiya bosqichlariga ajratgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Yuqoridaqgi tadqiqotlardan ko'rindiki, daromadlarning barcha hajmi uchun bir xilda soliq stavkasining belgilanganligi daromadning nafliligini ijobjuyi bo'lishiga yordam bermayapti. Boshqacha aytganda, kam daromad oluvchilar va yuqori daromad oluvchilar o'rtasidagi nisbat soliq to'lashdan oldin va keyin o'zgarmayapti. Bu yerda fiskal siyosatning daromadlarni taqsimlash masalasidagi ta'siri sezilarli ahamiyatga ega bo'lmayapti.

Masalan, jismoniy shaxslarning daromad solig'i O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida (381-modda) 12 foiz etib belgilangan. Shuningdek, dividendlar va foizli to'lovlardan esa 5 foiz hajmida soliq undirilishi belgilab berilgan. Ma'lumki, kam daromadli aholi qatlamida dividend va foizli to'lovlarining mavjud bo'lish ehtimoli mavjud emas. Shu boisdan, yuqori daromad egalari dividend shaklida daromad olishi bilan kam foizda soliq olayotganligini kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, kam daromadli aholining mamlakatdagi o'rtacha daromaddan past daromadga ega bo'lishi jismoniy shaxslar daromadiga soliq solishning ta'sir doirasi kamligi bilan izohlash mumkin. Aholi daromadlari o'rtasidagi o'zaro nisbat o'zgarmasligi barcha uchun bir xil foiz stavkasi qo'llanishi bilan ifodalanadi. Bizningcha, nisbiy kambag'allik chegarasidagi aholining daromadlarini o'rtachadan past bo'lishini oldini olish maqsadida ular uchun soliq siyosatida ayrim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadiga muvofi hisoblanadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, kam daromadli aholining ijtimoiy xizmatlarni qo'shimcha sotib olish bilan bog'liq xarajatlariiga mos ravishda soliqlarni qaytarib berish uslubiyatini joriy etish muhim hisoblanadi. Bunda kam daromadli oilalarning farzandlarini qo'shimcha ijtimoiy xizmatlari maqomiga quyidagilarni kiritish:

- ta'lim kurslariga qatnashishlari uchun to'lagan to'lovlariغا mos tarzda daromad solig'ini miqdorini qaytarib berish;
- qo'shimcha tibbiy emlanish bilan va boshqa bepul tibbiy xizmat tarkibiga kiruvchi xizmatlarni nodavlat tibbiyot muassasalarida sotib olish xarajatlari miqdoriga mos tarzda daromad solig'ini qaytarib berish. Bunda davlat tibbiyot muassasalarida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatilmagan sababli holatlar mavjud bo'lishini inobatga olish zarur bo'ladi.

Kam daromadli oilalar tomonidan qo'shimcha tibbiy xizmatlar uchun to'langan to'lovlarning yillik eng yuqori miqdorini belgilash bu boradagi moliyaviy spekulyatsiyalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ko'plab iqtisodchilar va olimlar kambag'allikni kamaytirish orqali aholi turmush farovonligini ta'minlashda mutloq kambag'allik kategoriyasiga e'tibor qaratishadi, deb o'yaymiz. Buning asosiy sababi sifatida aholining kam daromadli qatlami asosiy tadqiqot obyektiiga aylanib qolishi bilan izohlashamiz mumkin. Bu esa, mohiyatan mutloq kambag'allik kategoriysi bilan uyg'un hisoblanadi. Shu boisdan, mutloq kambag'allikni qisqartirishda unga mos keluvchi o'zgarishlarni tanlab olish maqsadga muvofiq.

Mutloq kambag'allik chegarasida bo'lgan aholi qatlami ijtimoiy himoya dasturlari bilan qamrab olinishi zarur hisoblanadi. Buning sababi ijtimoiy soha xizmatlari amalga oshirilgan davrda ular bundan to'g'ri foydalanma-ganligi yoki ijtimoiy soha xizmatlari sifatlari va manzilli yetkazib berilmaganligi bilan ifodalanadi. Shuningdek, ularga yuqori malakani shakllantirib beruvchi kasblarni o'rgatish ham o'zining ijobji natijaisni bermaydi. Shu boisdan, ularga o'rta malaka talab etuvchi kasblarni o'rgatishga qaratilgan metodlarni qo'llash lozim bo'ladi.

Ijtimoiy himoya dasturlari doirasida aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash qisqa muddatli yalpi iste'molni o'zida aks ettiradi. Bu esa, aholi turmush farovonligi ham qisqa muddatli mohiyatga ega bo'lib qolishini aks ettiradi.

Umuman xulosa qilib aytganda, aholi turmush farovonligini ta'minlashda kambag'allikni qisqartirish muhim rol o'ynar ekan. Farovonlikni ta'minlashda kambag'allikni guruhlarga ajratib olish va ularga uyg'un ravishda islo-hotlarni amalga oshirish zaruriy tendensiya hisoblanadi. Bunda daromadlarni qisqa va uzoq muddatli davrlarda bo'lishini tahlil etish va unga mos tarzda nisbiy va mutloq kambag'allikka qarshi ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi. Bunda ijtimoiy siyosat va fiskal instrumentlar o'zaro uyg'unlikda foydalanish kambag'allikka qarshi kurashda ijobji natija beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Copeland, P., & Daly, M. (2014). Poverty and social policy in Europe 2020: ungovernable and ungoverned. *Policy & Politics*, 42(3), 351–365. doi:10.1332/030557312x655503
- Dalton, H. (1920). The Measurement of the Inequality of Incomes. *The Economic Journal*, 30(119), 348. doi:10.2307/2223525
- Atkinson, A. B. (1970). On the measurement of inequality. *Journal of Economic Theory*, 2(3), 244–263. doi:10.1016/0022-0531(70)90039-6
- Aigner, D. J., & Heins, A. J. (1967). A social welfare view of the measurement of income equality. *Review of Income and Wealth*, 13(1), 12–25. doi:10.1111/j.1475-4991.1967.tb00732.x
- Sen, A. (1976). Poverty: An Ordinal Approach to Measurement. *Econometrica*, 44(2), 219–231. https://doi.org/10.2307/1912718
- Relative Poverty vs. Absolute Poverty https://endpoverty.org/relative-poverty-vs-absolute-poverty/#:~:text=which%20one%20resides.-,Absolute%20Poverty,cannot%20meet%20their%20basic%20needs.
- International Monetary Fund. GDP per capita, current prices, https://www.imf.org/external/datamapper/NGDPDPC@WEO/KAZ/UZB/KGZ/TKM/TJK
- Jumayev N., Raxmonov D. Kambag'allik: Daromad tengsizligimi yoki ta'lim olishga e'tiborsizlik?//Xalq so'zi (onlayn) 25.06.2020 y. https://xs.uz/uzkr/33676
- Hasanov R. Kambag'allik muammosi mohiyati va omillari/Iqtisodiyot: tahlillar va proqnozlar. - №1(12), yanvar-mart. 2021 y. – B. 19-24. https://imrs.uz/files/publications/ru/735061.pdf
- Tursunkodjayev M., Abulkasimov X., M.Ganiyev Innovatsion iqtisodiyotning shakllanish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari/Iqtisod va moliya, - №4(164), 2023. – B. 2-7. DOI: 10.34920/elf/vol\_2023\_issue\_4\_1
- Axmedjanov K.B., Zayniyev F.N. Aholi daromadlari va xarajatlari balansiga jismoniy shaxslar daromad solig'inining optimal ta'sirini ta'minlash yo'llari//Qo'Qon universiteti xabarnomasi ilmiy-elektron jurnali, 2023. -№1. – B. 91-96.
- Ro'ziyev G'.U. Aholi daromadlarini soliqqa tortishda soliqqa ortilmaydigan minimumni joriy etish masalalari/Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, avgust. –№4. – B. 191-200.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.